

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

A K A D E M I YA

N. T. ISMOILOV

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MA’MURIY JAVOBGARLIK TO‘G‘RISIDAGI
KODEKSINING 51² – 51⁹-MODDALARIGA

S H A R H L A R

Ilmiy-amaliy qo‘llanma

TOSHKENT – 2015

T a q r i z c h i l a r :

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi davlat va huquq nazariyasi va tarixi kafedrası boshlig‘i yuridik fanlar doktori,
professor **X. T. Odilqoriyev**;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi boshqaruvning huquqiy asoslari kafedrası mudiri
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **E. T. Xojiyev**

Ismoilov N.T.

I 87

**O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 51²–51⁹-moddalariga sharhlar: Ilmiy-amaliy qo‘l-
lanma.** – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 32 b.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 51²–51⁹-moddalariga ilmiy-amaliy sharhlarda kodeks moddalarida belgilangan qoidalarning mazmuni hamda ularni tartibga soluvchi boshqa qonunchilik hujjatlari batafsil yoritilgan.

Mazkur sharhlar huquqshunoslar, ma’muriy, saylov qonunchiligi bilan shug‘ullanuvchi vakolatli subyektlar hamda yuridik ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, tinglovchi, talabalariga mo‘ljallangan.

BBK 67.99(5U)1

KIRISH

Yurtimizda amalga oshirilgan demokratik, siyosiy va huquqiy islohotlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida saylov qonunchiligi va amaliyoti ham rivojlanib bordi. Natijada milliy saylov qonunchiligi hozir umumiy demokratik talablarga javob beradigan darajaga yetdi. Shunday bo'lishiga qaramay, u tobora takomillashtirib borilmoqda. Shu o'rinda saylov tizimi tarixi va amaliyoti bilan bog'liq asosiy bosqichlar haqida to'xtalib o'tsak.

Saylov tizimining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratilishi 1991 – 2000-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda O'zbekiston Konstitutsiyasi, saylov tizimi bilan bog'liq asosiy qonunlar qabul qilindi, ilk marotaba prezident saylovi o'tkazildi hamda ko'ppartiyaviylik asosida bir palatali parlament shakllantirildi.

Hozir deyarli barcha mamlakatlarda konstitutsiya saylov qonunchiligining asosi hisoblanadi, shu jumladan, O'zbekistonda ham. Saylov tizimi bilan bog'liq asosiy normalar konstitutsiya va saylovga oid qonun hujjatlarida belgilangan bo'lib, ular saylovni demokratik tamoyillar asosida adolatli, xolisona, ochiq va oshkora o'tkazishga, fuqarolarning bu boradagi huquq, erkinlik va manfaatlarini kafolatlashga, saylovda fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, siyosiy partiyalar faol ishtirok etishiga xizmat qilmoqda.

Bu davrda qabul qilingan muhim hujjatlardan biri, shubhasiz, «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonundir. Ushbu qonun bilan fuqarolarga saylov huquqlarini amalga oshirish va o'z xohish-istaklarini erkin ifodalash mexanizmi yaratib berildi.

Yangi saylov qonunchiligi 1994-yilda ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilgan parlament saylovida sinab ko'rildi. Buning natijasida birinchi chaqiriq Oliy Majlis tarkibi ikkita siyosiy partiya va hokimiyat vakillik organlari tomonidan ko'rsatilgan nomzodlardan saylangan deputatlardan iborat tarzda shakllantirildi. Shunday qilib, konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar orqali yagona partiyaning «yetakchilik roli»dan voz kechildi. Demokratik asosda shakllangan, ko'ppartiyaviylikka tayangan milliy parlament vujudga keltirildi.

Oliy Kengashning 1994-yil 23-sentabrda bo'lib o'tgan o'n ikkinchi sessiyasida Oliy Majlisga birinchi saylovni 1994-yil 25-dekabrda o'tkazish

to'g'risida qaror qabul qilindi. Uch bosqich (1994-yil 25-dekabr, 1995-yil 8 va 22-yanvar)da bo'lib o'tgan saylov yakunlariga binoan 245 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament tuzildi. Birinchi chaqiriq (1995 – 1999-yillar) Oliy Majlis tarkibida O'zbekiston xalq demokratik partiyasidan saylangan 69, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan 47, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 14 va «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan 7 nafar deputat bo'lib, ularning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko'rsatilgan shaxslar tashkil etdi.

Ushbu davr milliy saylov tizimining demokratik asoslarini mustahkamlash va qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish kabi tadbirlarni ham o'z ichiga oladi.

Jumladan, bu bosqichda saylovni tashkil etish va natijasini aniqlashda xolislikni ta'minlash maqsadida «O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida»gi (1998-yil 30-aprel) qonun qabul qilindi va mamlakatimiz tarixida ilk bor demokratik yo'l bilan Markaziy saylov komissiyasi tuzildi. Bundan tashqari, deputatlikka mustaqil nomzodlarni ilgari surish, ko'ppartiyaviylik va fikrlar xilma-xilligini kuchaytirishga keng sharoit yaratish uchun saylov qonunchiligidan «besh foizlik to'siq» haqidagi qoida chiqarib tashlandi va saylovchilar tashabbuskor guruhlarning bevosita nomzod ko'rsatish huquqlari mustahkamlandi. Shuningdek, 1999-yil 19-avgustdagi qonun bilan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida» hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonunlarga qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

1996-yilning dekabrda saylov jarayonining muhim subyektlari sanalgan siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi bilan 1999-yili o'tkazilgan parlament sayloviga yangi huquqiy zamin yaratildi. Siyosiy partiyalar Oliy Majlisda o'z fraksiyalarini tashkil etishining qonuniy kafolatlari vujudga keltirildi. Eng muhimi, siyosiy partiyalarning saylov tartib-qoidalariga rioya qilinishini nazorat etish bo'yicha vakolatlari kengaydi va nomzod ko'rsatgan siyosiy partiya har bir saylov uchastkasiga o'z kuzatuvchisini tayinlash huquqiga ega bo'ldi.

2000 – 2010-yillarda saylov tizimi va amaliyotining huquqiy asoslari yanada rivojlantirildi. Bu yillar yurtimizda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'ldi, iqtisodiyot barqaror rivojlandi, siyosiy hayot, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalar izchil isloh etildi. Bu davrda bevosita ikki palatali parlament tizimiga o'tish bilan bog'liq saylov qonunchiligi takomillash-

tirildi. Bunda quyi — Qonunchilik palatasini shakllantirishda asosan partiyaviy vakillik prinsipi ustuvor bo‘ldi. Siyosiy partiya vakillarining o‘z ijtimoiy-siyosiy qarashlari va saylovchilar manfaatlarini ifodalashi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Parlamentning yuqori palatasi — Senat hududiy vakillik organi sifatida e‘tirof etildi hamda uning asosiy tarkibi pog‘onali saylovlar asosida shakllanishi konstitutsiyaviy qonunda mustahkamlab qo‘yildi.

2003 hamda 2008-yillarda Konstitutsiya va saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga qator o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu milliy saylov tizimining izchil va bosqichma-bosqich liberallashtirishini, ikki palatali parlament saylovining qonun talablari hamda umume‘tirof etilgan xalqaro prinsip va normalarga to‘la mos holda o‘tkazilishini ta‘minlaydigan qonunchilik bazasi shakllanishiga olib keldi.

Prezidentning vakolat muddati o‘zgartirilib, ayrim vakolatlari Senat va Bosh vazirga o‘tkazildi. 2003-yilning 29-avgustida «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonunga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Shunday qilib, ikki palatali parlamentga saylovni o‘tkazish uchun zarur normativ-huquqiy baza yaratildi. Bunda saylov huquqiga oid xalqaro standartlar va saylov tizimini rivojlantirish tajribasi, shuningdek, mamlakatda parlamentarizm taraqqiyotining milliy xususiyatlari e‘tiborga olindi. Masalan, 2004-yilgi saylovga qadar saylov qonunchiligiga joriy etilgan eng muhim yangiliklar qatorida mahalliy kengashlarning deputatlikka nomzod ko‘rsatish huquqi bekor qilingani, siyosiy partiyalar deputatlikka nomzodlar ko‘rsatganida xotin-qizlar uchun kvota belgilangani, shuningdek, saylovoldi tashviqotini olib borishda partiyalar faoliyatini moliyalashtirish masalasining hal etilganini alohida ta‘kidlash kerak.

2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan va 2009-yil 1-iyuldan kuchga kirgan «Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qonun saylov jarayonining huquqiy asoslarini yanada rivojlantirdi. Ushbu qonunga muvofiq Qonunchilik palatasidagi deputatlik o‘rinlari soni 120 tadan 150 taga ko‘paytirildi. Bunda 135 ta o‘rinni siyosiy partiyalardan ko‘ppartiyaviylik asosida bir mandatli okruglarda saylanadigan deputatlar egallaydi. O‘zbekiston ekologik harakatidan esa Qonunchilik palatasining 15 nafar deputati mazkur harakatning oliy organi (konferensiyasi) tomonidan Markaziy saylov komissiyasi belgilaydigan muddatlarda saylanadigan bo‘ldi. Shuningdek,

jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida siyosiy partiyalarning roli kuchayib borayotgani inobatga olinib, saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan deputatlikka nomzod ko'rsatish instituti bekor qilindi. Deputatlikka nomzodlar ishonchli vakillarining soni 5 nafardan 10 nafarga oshirildi. Saylovni o'tkazishda saylov komissiyalari faoliyatining oshkoraligini yanada oshirishga yo'naltirilgan qator yangi tartib-qoidalar joriy etildi. Shunday qilib, saylov qonunchiligi izchillik bilan rivojlanib bordi.

Saylov nafaqat fuqarolarning siyosiy huquqlarini ta'minlash, balki davlat hokimiyatini shakllantirishning birlamchi omiliga aylandi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, saylovning ahamiyati va roli quyidagi nazariy qarashlarda ham namoyon bo'ladi. Xususan, demokratik davlatda siyosiy madaniyat va fuqarolarning tashabbuskorligi yuqori darajada rivojlangan paytlarda ham saylovda to'la yakdillik bo'lmasligi tabiiy hol hisoblanadi. Sababi, saylovning asosiy maqsadi barcha fuqarolar o'rtasida ideal kelishuv (konsensus)ga erishishdan iborat bo'lishi kerak emas (chunki unga, favqulodda vaziyatlardan tashqari, rivojlangan jamiyatda hech qachon erishib bo'lmaydi), balki saylov orqali barcha fuqarolar o'z irodasini bildirish imkoniyatiga ega bo'lishi, davlat hokimiyatining vakillik organlari esa mazkur irodaga mos holda tashkil etilishi va harakat qilishi lozimligini ta'minlashdan iborat bo'lishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, saylovdagi g'oyaviy kurash orqali jamiyat hayotida barqarorlikka va rivojlanishga erishiladi.

Shu bilan birga, saylov nomzodlar kurashi va siyosiy jarayon bo'lgani uchun unda turli xil siyosiy o'yinlar va manfaatlar to'qnashuvi mavjuddir. Saylov kampaniyasi jarayonida, odatda, fuqarolarda siyosiy ehtiroslar kuchayishi kuzatiladi va har xil kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois rivojlangan jamiyatlarda bunday muammolarning oldini olish maqsadida qonun doirasida siyosiy axloqning muayyan standartlari ishlab chiqilgan bo'ladi. Bu kabi standartlarning qo'llanishi mazkur jarayonlarning yanada demokratlashuviga xizmat qiladi.

Xususan, 2012-yilda qabul qilingan «Saylov erkinligi yanada ta'minlanishi va saylov qonunchiligi yanada rivojlantirilishi munosabati bilan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonunda saylovoldi tashviqoti jarayonining mohiyati ochib berildi. Tashviqotni olib borish turlari, shakllari va usullari, muddatidan oldin ovoz berishning tartib-taomillari,

qamoqda saqlash joylarida ham saylov uchastkalarini tashkil etishning huquqiy asoslari mustahkamlab qo'yildi.

O'tgan davr mobaynida, xususan, 1991, 2000 va 2007-yillarda o'tkazilgan prezident saylovi hamda 1994, 1999, 2004 va 2009-yillarda vakillik organlariga o'tkazilgan saylovlarda erkin va adolatli saylov o'tkazish bo'yicha katta tajriba to'plandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilib, 2010-yilning noyabr oyida Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi», uning doirasida qabul qilingan qonunlar saylov qonunchiligini izchillik bilan yanada maqsadli rivojlantirishda muhim omil bo'ldi. Jumladan, saylov qonunchiligiga saylovoldi tashviqotining shakl va usullarini aniq belgilash, saylov kampaniyasining ushbu muhim bosqichini o'tkazishda deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga teng sharoitlar yaratish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan qator qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi. Saylovlar paytida oshkoralikni ta'minlashning huquqiy mexanizmlari takomillashtirildi.

O'zbekiston Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan tuzatishlarni ro'yobga chiqarish sohasidagi qonun ijodkorligi ishlari dasturi to'g'risida»gi 2014-yil 25-iyun farmoyishiga muvofiq tayyorlanib, qabul qilingan va 2014-yil 4-sentabrda Prezident tomonidan imzolangan qonun ham saylov qonunchiligini yanada takomillashtirishga, Markaziy saylov komissiyasining vakolatlarini kengaytirishga, mustaqilligining kafolatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2014-yil 16-aprelda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» (32,78, 93, 98, 103 va 117-moddalari)gi qonun qabul qilinib, Konstitutsiyaning 32-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Shu bilan birga, mazkur qonunga asosan, Konstitutsiyaning 117-moddasi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi referendumini tashkil etish va o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuzilib, uning huquqiy maqomi mustahkamlandi.

Shuningdek, mamlakatimiz parlamenti tomonidan saylov to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan yana bir qator qonun

hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Binobarin, 2014-yil 4-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunga muvofiq «O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida»gi qonunga, Budget kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga Markaziy saylov komissiyasining faoliyati asosiy prinsiplarini belgilashga, uning mustaqilligini, shu jumladan, moliyaviy mustaqilligini mustahkamlashga, shuningdek, saylov va referendum to'g'risidagi qonun hujjatlari sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik belgilashga qaratilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritildi.

Ayniqsa, saylov to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikning mustahkamlab qo'yilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi sakkizta moddadan iborat bo'lgan yangi bob – «Saylov va referendumni tashkil etish va o'tkazish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik», deb nomlangan V¹ bob bilan to'ldirildi. Saylov qonunchiligini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikning qat'iy belgilab qo'yilishi saylov erkinligi prinsipi yanada to'liqroq amalga oshirilishiga, mamlakatimiz saylov tizimi yanada demokratlashtirilishiga, saylovning ochiq-oshkoraligi prinsiplarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Saylov qonunchiligidagi ushbu yangiliklar saylov jarayonlarini yanada liberallashtirish, uning ochiqligini ta'minlash, fuqarolarning o'z xohish-irodalarini erkin va mustaqil ifodalashi uchun mavjud mexanizmlarni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muvofiq Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o'tkazuvchi komissiyalarning faoliyatiga aralashishga, ularning qarorlari ijro etilmasligiga yo'l qo'yilmaydi. Saylov komissiyalari o'z vakolati doirasida davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar va mansabdor shaxslardan mustaqildir. Zero, saylov jarayonida qonuniy, adolatli va barcha ishtirokchilarga teng sharoitlar yaratish uchun saylov komissiyasi a'zolarining mustaqil holda ish yuritishlari g'oyat muhim tamoyil hisoblanadi. Binobarin, ushbu tamoyilning amaliy jihatdan ta'minlanmasligi saylovlarning demokratik mohiyatiga jiddiy putur yetkazadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, saylov qonunchiligini buzish hollari uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi normalarning kiritilishi, *birinchidan*, milliy saylov qonunchiligi takomillashtirilishi hamda fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlarining mustahkamlanishi bilan bog'liq. *Ikkinchidan*, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga

kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar rivojlangan demokratik davlatlarning ilg'or tajribalariga to'la mos keladi. Qonunchilikdagi mazkur yangiliklar 2014-yil 21-dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda mahalliy vakillik organlariga bo'lib o'tgan navbatdagi saylovlar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan standartlar asosida yanada yuqori saviyada, demokratik tamoyillarga to'la mos ravishda o'tkazilishiga huquqiy zamin yaratadi.

Shu jihatdan saylov va referendumni tashkil etish va o'tkazish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar ilmiy-amaliy talqinini ifoda etuvchi ushbu sharhlar huquqni qo'llash amaliyoti hamda tegishli subyektlar faoliyatida qonun normalarining to'g'ri va aniq qo'llanilishida juda muhim manbadir.

V¹ bob. SAYLOV VA REFERENDUMNI TASHKIL ETISH HAMDA O‘TKAZISH SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN MA‘MURIY JAVOBGARLIK

51²-modda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning faoliyatiga aralashish

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning faoliyatiga aralashish, xuddi shuningdek ularning ishiga to‘siqlarni yuzaga keltirish, —

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning faoliyati O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 18-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida»gi¹, 1994-yil 5-maydagi «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi²², O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida»gi³, 2001-yil 30-avgustdagi yangi tahrirdagi «O‘zbekiston Respublikasining Referendumi to‘g‘risida»gi⁴, 2003-yil 23-avgustdagi yangi tahrirdagi «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi⁵ qonunlari bilan tartibga solingan.

Huquqbuzarlikning obyektini saylov va referendum to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 2014-yil 4-sentabr qonuniga muvofiq «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida»gi qonuniga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi⁶. Qonun asosan Markaziy saylov komissiyasi faoliyatining

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1992. – № 1. – 34-м.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1994. – № 5. –125-м.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1998. – № 5 – 6. – 95-м.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – № 9 – 10. –176-м.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – № 9 – 10. –

132-м.

⁶ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2014. – 36-сон. – 452-м.

mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik, adolatlilikdan iborat asosiy prinsiplari belgilab berildi.

«O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida»gi qonunning 2¹-moddasiga asosan Markaziy saylov komissiyasi va uning a‘zolari o‘z faoliyatini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda amalga oshirishi hamda Markaziy saylov komissiyasining faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi qat’iy qoida tariqasida belgilab qo‘yilgan.

Huquqbuzarlikning obyektiv tomoni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning faoliyatiga aralashish, xuddi shuningdek ularning ishiga to‘siqlarni yuzaga keltirishda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning faoliyatiga aralashish deganda nomzodlarni ro‘yxatga olishda, saylov uchastkasida berilgan ovozlarni hisoblab chiqishda komissiyaga ta’sir o‘tkazish, saylovchilardan ular kimni yoqlab ovoz berganliklarini surishtirish kabi harakatlarda ifodalanadi. Saylov komissiyasining faoliyatiga noqonuniy aralashish mansabdor shaxs yoki mas’ul shaxs tomonidan saylov va referendum to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida yuklatilgan mansab vakolatlari yoki xizmat mavqeidan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning ishida *to‘siqlarni yuzaga keltirish* saylov komissiyasi a‘zolarini komissiya tarkibida ishlash imkoniyatlarini cheklash, saylov uchastkasida berilgan ovozlarni hisoblab chiqishda kuzatuvchilar ishtirokini cheklash, jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi ma’muriy huquqbuzarliklar yoki jinoyatlar sodir etish kabi harakat yoki harakatsizliklarda namoyon bo‘ladi.

Sharhlanayotgan modda nazarda tutilgan huquqbuzarlik subyektlari sifatida asosan kuzatuvchi maqomiga ega shaxslar bo‘lishi mumkin. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonuni-ning 6-moddasiga muvofiq saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzodlar ko‘rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan kuzatuvchi, ommaviy axborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga ega. Shuningdek, «O‘zbekiston Respublikasining Referendumi to‘g‘risida»gi qonunning 8-moddasiga asosan referendumga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga

doir barcha tadbirlarda ham siyosiy partiyalardan, fuqarolar tashabbuskor guruhlaridan kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalarining vakillari, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga ega. Ushbu kuzatuvchilar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi hamda tegishli viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan namunadagi mandatga ega bo‘lishi shart. «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonunining 6-moddasiga muvofiq kuzatuvchilarga uchastka saylov komissiyasining faoliyatiga aralashish taqiqlanadi. O‘z navbatida referendum to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida hamda kuzatuvchilarning referendum o‘tkazuvchi uchastka komissiyasining faoliyatiga aralashishi man etilgan.

Huquqbuzarlikning subyektiv tomoni ham qasddan ham ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilishida namoyon bo‘ladi.

Huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 245-moddasiga ko‘ra ma‘muriy ishlar bo‘yicha sudyalardan tomonidan ko‘rib chiqiladi.

51³-modda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning qarorlarini ijro etmaslik

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning qarorlarini ijro etmaslik, xuddi shuningdek ularning murojaatlarini ko‘rib chiqishni g‘ayrihuquqiy ravishda rad etish, ularni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, —

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning qonun bilan tartibga solingan vakolatlari doirasida qabul qilingan tegishli qarorlarini ijro etish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar huquqbuzarlik obyektini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning qarorlari ijrosining majburiyligi saylov qonunchiligida aniq belgilab qo‘yilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida»gi qonunining 19-moddasida, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 17-modda-

sida, «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida»gi qonunning 10-moddasida, «O‘zbekiston Respublikasining Referendumi to‘g‘risida»gi qonunning 24-moddasida, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 17-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlar okrug va uchastka saylov komissiyalari hamda referendumni o‘tkazish komissiyalari uchun, davlat organlari, siyosiy partiyalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun majburiydir deb belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida»gi, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasining Referendumi to‘g‘risida»gi qonunlarida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning murojaatlarini ko‘rib chiqishning alohida tartibi belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida»gi qonunining 20-moddasida, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 17-moddasida, «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida»gi qonunning 11-moddasida, «O‘zbekiston Respublikasining Referendumi to‘g‘risida»gi qonunning 24-moddasida, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 17-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, saylov komissiyalari, referendum o‘tkazuvchi komissiyalari saylovga yoki referendumga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlariga, boshqa mansabdor shaxslarga murojaat etish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan. Davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari masalani uch kun muddatda ko‘rib chiqishlari va javob berishlari shart.

Murojaatlarni ko‘rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etish murojaatlarni ko‘rib chiqish majburiyati yuklangan shaxs yoki organning qonunda ko‘rsatilmagan asoslarga ko‘ra murojaatni qabul qilmasligidir.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, saylov komissiyalari tomonidan referendum o‘tkazuvchi komissiyalari saylovga yoki referendumga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq

masalalar yuzasidan murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatining uzrsiz sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilishi javobgarlikni yuzaga keltiradi.

Huquqbuzarlikning obyektiv tomoni mansabdor shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning qarorlarini ijro etmaslikdan, ularning murojaatlarini ko‘rib chiqishni g‘ayrihuquqiy ravishda rad etish, ularni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzishdan iborat harakatsizlikda namoyon bo‘ladi.

Huquqbuzarlik qonunga xilof harakatsizlikning boshlanishi bilan tugallangan hisoblanadi. Biroq huquqbuzarlikning davomli xususiyatini inobatga olib qarorni yoki so‘rov xatini ijro etmaslik holati aniqlangan kundan boshlab ma‘muriy javobgarlikka tortish muddati hisoblanadi.

Huquqbuzarlik subyektivi mansabdor shaxslar hisoblanadi.

Huquqbuzarlik subyektiv tomondan qasddan sodir etilishi mumkin.

Huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 245-moddasiga ko‘ra ma‘muriy ishlar bo‘yicha sudyalardan tomonidan ko‘rib chiqiladi.

51⁴-modda. Nomzodning, ishonchli vakilning, kuzatuvchining yoki siyosiy partiya vakolatli vakilining huquqlarini buzish

Nomzodning, ishonchli vakilning, kuzatuvchining yoki siyosiy partiya vakolatli vakilining huquqlarini buzish, —

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Mamlakatimizda milliy saylov qonunchiligining xalqaro huquqiy normalarga mosligini ta‘minlash maqsadida siyosiy partiyalarga O‘zbekiston Respublikasi saylov qonunchiligiga asosan saylovlarda o‘z kuzatuvchisi va vakolatli vakillari bilan ishtirok etish huquqi berilgan.

Siyosiy partiya kuzatuvchisining saylovlardagi ishtirokini huquqiy tartibga solish maqsadida «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi va «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining 6-moddasida alohida qoidalar mavjud. Unga asosan, saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek, har bir saylov uchastkasida saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzod ko‘rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan kuzatuvchi qatnashishi mumkinligi belgilangan. Shuningdek, mazkur moddada kuzatuvchilarning huquqlari, ya‘ni ular nimalarni amalga

oshirishi mumkinligi va o‘z navbatida, ular tomonidan qanday harakatlar amalga oshirilishi mumkin emasligi aniq va tushunarli qayd etilgan. Mamlakatimizda davlat hokimiyati vakillik organlariga bo‘lib o‘tgan saylovlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, siyosiy partiyalar o‘rtasida raqobatning kuchayishi natijasida partiyalar saylovlarda o‘z kuzatuvchilari va vakolatli vakillarining imkoniyatlaridan samarali foydalanishga harakat qilmoqda.

Saylov jarayonlarida siyosiy partiyalar faolligini oshirish, ular o‘rtasidagi tenglik va sog‘lom raqobatni ta‘minlash maqsadida 2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan «Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qonunga¹ asosan, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi va «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonunlarga 17¹-modda kiritildi. Unga asosan, Qonunchilik palatasiga yoki viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatligiga nomzodlar ko‘rsatgan siyosiy partiyalarga saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish uchun Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadigan tartibda o‘z a‘zolari orasidan vakolatli vakil tayinlash huquqi berildi.

Saylov to‘g‘risidagi qonunchiligimizga binoan saylovchilar bilan uchrashuvlar deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil ravishda o‘tkaziladi.

Deputatlikka nomzod qilib ro‘yxatga olingan shaxs saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish, saylovoldi yig‘ilishlarida so‘zga chiqish, televide niye ko‘rsatuvlari va radio eshittirishlarida qatnashish vaqtida, o‘rtacha oylik ish haqi saqlangan holda ishlab chiqarish yoki xizmat vazifalarini bajarishdan ozod bo‘lish huquqiga ega.

Deputatlikka nomzodlar 10 nafarga qadar ishonchli vakillarga ega bo‘lishlari mumkin. Ishonchli vakillar nomzod deputat etib saylanishi uchun joylarda tashviqot yuritadilar, shuningdek, saylov komissiyalarida nomzodning manfaatlarini himoya qiladilar.

Ta‘kidlash joizki, saylov qonunchiligimizda deputatlikka nomzodlar huquqlarining kafolatlari xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan qoidalariga to‘la mos keladi. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (2,7,21-moddalar), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (25-modda), 1990-yilda qabul qilingan insoniylik mezonlari bo‘yicha Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2008. – 52-сон. – 510-м.

Kopengagen hujjati (7.7 – 7.8-bandlari), «Ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf qilish to‘g‘risidagi deklaratsiya» (4-modda), 1994-yilda Parlamentlararo ittifoq qabul qilgan «Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to‘g‘risidagi deklaratsiya» (3, 4-bandlar), 2002-yil Venetsiya komissiyasi tomonidan qabul qilingan «Saylovlarga nisbatan rahbariy prinsiplar» (3-bandi) va boshqa hujjatlarda ushbu masala atroflicha ochib berilgan. Masalan, Venetsiya komissiyasining Saylovlarga nisbatan rahbariy prinsiplarida barcha nomzodlarga teng imkoniyatlar kafolatlanishi belgilab qo‘yilgan. Bu esa saylov kampaniyasi davrida ommaviy axborot vositalari, xususan, davlat ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda, nomzodlar ko‘rsatgan siyosiy partiyalarning davlat mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishida teng imkoniyatlar yaratilishini nazarda tutadi. Parlamentlararo ittifoqning Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to‘g‘risidagi deklaratsiyasining 3-bandida har bir nomzod ommaviy axborot vositalarida chiqishda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozimligi qayd etilgan.

O‘zbekiston mazkur qoidalarga mustaqillikning dastlabki yillaridanoq amal qilib, ushbu normalarni tegishli qonunlarda mustahkamlab qo‘ydi. Mamlakatimiz saylov qonunchiligining yana bir afzalligi shundaki, Oliy Majlis har ikki palatasi saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar davlat mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Qonunchilik palatasi deputatligiga va Senat a‘zolariga nomzodlarni boshqa mablag‘lar hisobidan moliyaviy ta‘minlash taqiqlanadi.

Nomzodlar huquqlari kafolatini ta‘minlashda odil sudlov muhim omil hisoblanadi. «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»-gi qonunning 18-moddasida saylov komissiyalarining qarorlari ustidan deputatlikka nomzodlar ko‘rsatgan siyosiy partiyalarning organlari, deputatlikka nomzodlar, ularning ishonchli vakillari, kuzatuvchilar va saylovchilar ana shu qaror qabul qilinganidan keyin o‘n kun ichida yuqori saylov komissiyasiga yoki sudga shikoyat qilishlari belgilab qo‘yilgan. Markaziy saylov komissiyasining qarorlari ustidan qaror qabul qilinganidan keyin o‘n kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat qilinishi mumkin. Shikoyat kelib tushganidan keyin uch kun ichida (saylovga olti kundan kam vaqt qolganda esa darhol) ko‘rib chiqilishi lozim. Shikoyat bergan shaxslar shikoyat ko‘rib chiqilishida bevosita ishtirok etish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 272-moddasiga asosan saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat sud tomonidan shikoyat berilgan kundan e‘tiboran uch kundan kechiktirmay (agar saylovga olti kundan kam vaqt qolgan bo‘lsa,

darhol) ko‘rib chiqiladi. Shikoyat sud tomonidan arizachini va tegishli saylov komissiyasining vakilini, shuningdek, prokurorni, agar shikoyat arizachiga emas, balki boshqa fuqaroga daxldor bo‘lsa, o‘sha shaxsni ham chaqirgan holda ko‘rib chiqiladi. Bu shaxslarning kelmasligi ishni ko‘rib chiqishga to‘sqinlik qilmaydi. Sudning hal qiluv qarori chiqarilishi bilan oq darhol tegishli saylov komissiyasiga va arizachiga topshiriladi.

Sharhlanayotgan moddada nazarda tutilgan huquqbuzarlik obyekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatligiga nomzodning, deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakilining, kuzatuvchining yoki siyosiy partiya vakolatli vakilining huquqlarini ta‘minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Huquqbuzarlik obyektiv tomonidan harakat yoki harakatsizlik (masalan, kuzatuvchini ovoz beriladigan joyga qo‘ymaslik, saylov komissiyasi a‘zosiga zarur ma‘lumotlarni, hujjatlarning nusxalarini taqdim etmaslik, qonunga xilof ravishda chetlashtirish va h k.)da namoyon bo‘ladi.

Huquqbuzarlik subyekti mansabdor shaxslar, fuqarolar hisoblanadi.

Huquqbuzarlik subyektiv tomondan faqat qasddan sodir etiladi.

Huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 245-moddasiga ko‘ra ma‘muriy ishlar bo‘yicha sudyalardan tomonidan ko‘rib chiqiladi.

51⁵-modda. Saylovoldi tashviqotini, referendumga qo‘yilgan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish shartlari va tartibini buzish

Saylovoldi tashviqotini, referendumga qo‘yilgan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish shartlari va tartibini nomzod, ishonchli vakil, siyosiy partiya vakili, mansabdor shaxs tomonidan buzish, —

eng kam ish haqining yetti baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Huquqbuzarlik obyekti saylovoldi tashviqotini, referendumga qo‘yilgan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish bilan yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Saylovoldi tashviqoti, referendumga qo‘yilgan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish tartibi O‘zbekiston Respublikasi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida»gi qonunining 28-moddasida, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risi-

da»gi qonunning 25-moddasida, «O‘zbekiston Respublikasining Referendumi to‘g‘risida»gi qonunning 24-moddasida, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 27-moddasida belgilab qo‘yilgan. Ushbu normalarga muvofiq saylovoldi tashviqoti deganda saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni deputatlikka nomzodni yoki siyosiy partiyani yoqlab ovoz berishga undashga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan kundan e‘tiboran boshlanadi.

Saylov kuni va ovoz berish boshlanishiga bir kun qolganida saylovoldi tashviqotiga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, saylovoldi tashviqotini saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko‘rsatish (axborot xizmatlaridan tashqari), qolaversa pul mablag‘lari to‘lash bilan qo‘shib olib borish taqiqlanadi.

Referendum to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida ham O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari referendum o‘tkazilishini yoqlab yoki unga qarshi, referendumga qo‘yilayotgan qonun loyihasi, amaldagi qonun yoki boshqa masalani yoqlab yoki unga qarshi moneliksiz tashviqot olib borishga haqli ekanligi belgilab qo‘yilgan. Referendumga qo‘yiladigan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish maqsadida radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish mumkin. Qonunga muvofiq tashviqotni fuqarolarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko‘rsatish (axborot xizmatlari bundan mustasno), shuningdek pul mablag‘lari to‘lash bilan qo‘shib olib borish taqiqlanadi. Referendum o‘tkaziladigan kuni tashviqot yuritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Saylovoldi tashviqoti siyosiy partiyaning dasturi va (yoki) saylovoldi platformasi to‘g‘risidagi axborotni o‘zining deputatlikka nomzodlarini yoqlab ovoz berishga da‘vat etgan holda deputatlikka nomzod to‘g‘risidagi axborotni uni yoqlab ovoz berishga da‘vat etgan holda tarqatish tarzda olib boriladi. Saylovoldi tashviqoti omma oldida munozaralar, bahslar, matbuot konferensiyalari, intervyular, so‘zga chiqishlar, saylovchilarning yig‘ilishlari, deputatlikka nomzod, siyosiy partiya to‘g‘risidagi roliklarni joylash-tirish shaklida olib borilishi mumkin.

Saylovoldi tashviqoti:

ommaviy axborot vositalari, shuningdek televideniye, umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari (shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i) orqali;

bosma, ko‘rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini (plakatlar, varaqalar va boshqa materiallarni) chiqarish hamda tarqatish orqali;

saylovchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga davlat ommaviy axborot vositalarida haq evaziga ham efir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi mumkin.

Deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga nodavlat ommaviy axborot vositalarida qonun hujjatlariga muvofiq efir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi mumkin.

Saylov kampaniyasida ishtirok etuvchi ommaviy axborot vositalari tomonidan efir vaqti, nashr maydoni uchun belgilanadigan haq to‘lash shartlari hamda boshqa talablar barcha deputatlikka nomzodlar, siyosiy partiyalar uchun teng va bir xil bo‘lishi kerak.

Ommaviy axborot vositalarida tarqatiladigan axborot haqiqatga mos bo‘lishi, deputatlikka nomzodlarning, siyosiy partiyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak. Haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlarni, shuningdek deputatlikka nomzodlarning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma’lumotlarni tarqatish taqiqlanadi.

Tashviqot jarayonida saylovchilarga, fuqarolarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko‘rsatish (axborot xizmatlari bundan mustasno), pul mablag‘lari to‘lash, shuningdek saylov kuni va ovoz berish boshlanishiga bir kun qolganida saylovoldi tashviqotini yuritish, referendum o‘tkaziladigan kuni tashviqot olib borish kabi harakatlar huquqbuzarlikning obyektiv tomonini tashkil etadi.

Sharhlanayotgan moddada nazarda tutilgan huquqbuzarlikning subyektivi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatligiga nomzod, deputatlikka nomzodning ishonchli vakili, siyosiy partiya vakolatli vakili, fuqarolar tashabbuskor guruhining a’zosi va boshqa mansabdor shaxs bo‘lishi mumkin.

Huquqbuzarlik subyektiv tomondan qasddan sodir etiladi.

Huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 245-moddasiga ko‘ra ma’muriy ishlar bo‘yicha sudyalardan tomonidan ko‘rib chiqiladi.

51⁶-modda. Nomzodlar, siyosiy partiyalar to‘g‘risida yolg‘on ma‘lumotlarni tarqatish

Saylov natijalariga ta‘sir ko‘rsatish maqsadida nomzod, siyosiy partiya to‘g‘risida ataylab yolg‘on ma‘lumotlarni e‘lon qilish yoki boshqa usullar orqali tarqatish, —

fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Sharhlanayotgan moddaning tuzilishi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatligiga nomzod, siyosiy partiyani diffamatsiyadan¹ himoya qilishni anglatadi.

Saylov natijalariga ta‘sir ko‘rsatish maqsadida nomzod, siyosiy partiya to‘g‘risida ataylab yolg‘on ma‘lumotlarni e‘lon qilish yoki boshqa usullar orqali tarqatishni man etuvchi qoidalar huquqbuzarlikning tajovuz obyektini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonunining 25²-moddasida, «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 27²-moddasida ommaviy axborot vositalarida tarqatiladigan axborot haqiqatga mos bo‘lishi, deputatlikka nomzodlarning, siyosiy partiyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerakligi belgilab qo‘yilgan. Haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma‘lumotlarni, shuningdek deputatlikka nomzodlarning sha‘ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma‘lumotlarni tarqatish taqiqlanadi.

Huquqbuzarlik subyekti Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatligiga nomzod, deputatlikka nomzodning ishonchli vakili, siyosiy partiya vakolatli vakili, ommaviy axborot vositalari vakillari va boshqa mansabdor shaxs bo‘lishi mumkin.

Huquqbuzarlik subyektiv tomondan qasddan sodir etiladi.

Huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 245-moddasiga ko‘ra ma‘muriy ishlar bo‘yicha sudyalardan tomonidan ko‘rib chiqiladi.

¹ *Izoh:* «Diffamo» – lotincha so‘z bo‘lib, «tahqirlovchi», mazmunan tahqirlovchi ma‘lumotlar tarqatish degan ma‘noni anglatadi.

51⁷-modda. Saylovga yoki referendumga tayyorgarlik ko‘rish va saylov yoki referendum o‘tkazish jarayonida axborot hamda tashviqot materiallarini qasddan yo‘q qilib yuborish yoki ularga qasddan shikast yetkazish

Binolarga, inshootlarga yoki boshqa joylarga joylashtirilgan axborot, tashviqot materiallarini saylovga yoki referendumga tayyorgarlik ko‘rish va saylov yoki referendum o‘tkazish jarayonida qasddan yo‘q qilib yuborish yoki ularga qasddan shikast yetkazish, — eng kam ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Sharhlanayotgan moddada nazarda tutilgan huquqbuzarlik obyekti saylovga yoki referendumga tayyorgarlik ko‘rish va saylov yoki referendum o‘tkazish jarayonida axborot hamda tashviqot materiallari bilan ta‘minlashda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

«O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi qonunning 27³-moddasiga asosan siyosiy partiyalarga bosma, ko‘rgazmali, audiovizual materiallarni, fonogrammalarni, bosma mahsulotning elektron shakllarini va boshqa tashviqot materiallarini moneliksiz chiqarish hamda tarqatish uchun teng sharoitlar yaratib beriladi. Tashviqot materiallari O‘zbekiston Respublikasi hududida tayyorlanishi kerak.

Bosma, ko‘rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

tashviqot materiallarini tayyorlagan yuridik shaxsning nomi (jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) va u haqdagi boshqa ma‘lumotlar;

tashviqot materiallariga buyurtma bergan yuridik shaxsning nomi (jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi);

tashviqot materiallarining adadi, chiqarilgan sanasi to‘g‘risidagi axborot.

Xuddi shunday qoidalar Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylov jarayonida tatbiq etilishi O‘zbekiston Respublikasining «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonunida nazarda tutilgan.

Huquqbuzarlikning obyektiv tomoni binolarga, inshootlarga yoki boshqa joylarga joylashtirilgan axborot, tashviqot materiallarini saylovga yoki referendumga tayyorgarlik ko‘rish va saylov yoki referendum

o'tkazish jarayonida qasddan yo'q qilib yuborish yoki ularga qasddan shikast yetkazishda, xuddi shuningdek turli suratlar yoki yozuvlar bitilishida ifodalanadi. Binolarga, inshootlarga va boshqa joylarga ilgari joylashtirilgan saylovoldi tashviqoti materiallari saylovga bir kun qolganida mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan olib qo'yiladi. Bu holat huquqbuzarlik tarkibini keltirib chiqarmaydi.

Huquqbuzarlik subyekti fuqarolar, mansabdor shaxslar hisoblanadi.

Huquqbuzarlik subyektiv tomondan qasddan sodir etiladi.

Huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 245-moddasiga ko'ra ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalari tomonidan ko'rib chiqiladi.

51⁸-modda. Saylovni yoki referendumni moliyalashtirish tartibini buzish

Saylovni yoki referendumni moliyalashtirish tartibini buzish, — fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Saylovni yoki referendumni moliyalashtirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar huquqbuzarlik obyektini tashkil etadi.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunning 64-moddasi «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonunning 48-moddasi hamda «O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida»gi qonunning 42-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sayloviga, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga sayloviga, shuningdek referendumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar davlat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Deputatlikka nomzodlarni boshqa mablag'lar hisobidan moliyaviy ta'minlash va moddiy jihatdan o'zga tarzda qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar saylov o'tkazish uchun o'z mablag'larini ixtiyoriy ravishda berishlari mumkin. Bu mablag'larni tegishli saylov komissiyalari saylov kampaniyasi vaqtida foydalanish uchun qabul qilib oladi.

Huquqbuzarlikning obyektiv tomoni saylovni yoki referendumni moliyalashtirish tartibini buzishda ifodalanadi.

Huquqbuzarlik subyektivi fuqarolar tashabbuskor guruhining a'zosi, mansabdor shaxs hisoblanadi.

Subyektiv tomondan huquqbuzarlik faqat qasddan sodir etiladi.

Huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 245-moddasiga ko'ra ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalardan tomonidan ko'rib chiqiladi.

51⁹-modda. Jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov yoki referendum natijalarini taxminlarini chop etish (e'lon qilish) tartibini buzish

Jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov yoki referendum natijalarini taxminlarini, shuningdek saylov yoki referendum bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni chop etish (e'lon qilish) tartibini buzish,

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o'n besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Huquqbuzarlik obyektini bevosita jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov yoki referendum natijalarini taxminlari, shuningdek saylov yoki referendum bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni chop etish (e'lon qilish)ga oid ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunining 33, 34, 35, 36-moddalarida, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunning 65-moddasi «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida»gi qonunning 49-moddasi hamda «O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida»gi qonunning 39-moddasiga ko'ra ovoz berish kuniga qadar uch kun ichida, shuningdek ovoz berish kuni jamoatchilik fikri so'rovlari natijalarini, saylov natijalarini taxminlarini, o'tkazilayotgan saylov bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni chop etishga (e'lon qilishga), shu jumladan ularni umumiy foydalanishdagi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlariga (shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'iga) joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi referendum o‘tkazilgandan keyin ko‘pi bilan o‘n kun ichida referendumda qabul qilingan qarorni e‘lon qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi referendum o‘tkazuvchi okrug komissiyalarining bayonlari asosida:

O‘zbekiston Respublikasining ovoz beruvchi fuqarolari umumiy sonini;

ovoz berish bulletinlarini olgan fuqarolarning sonini;

ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning sonini;

referendumga qo‘yilgan masalani yoqlab berilgan ovozlar sonini;

referendumga qo‘yilgan masalaga qarshi berilgan ovozlar sonini;

haqiqiy emas deb topilgan ovoz berish bulletinlarining sonini aniqlaydi.

Agar ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning yarmidan ko‘prog‘i yoqlab ovoz bergan bo‘lsa, qaror referendumda qabul qilingan deb topiladi.

Agar ro‘yxatga kiritilgan fuqarolarning yarmidan kam referendumda ishtirok etgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi referendumni o‘tmagan deb topadi.

Ovoz berish chog‘ida yo‘l qo‘yilib, oqibat natijada ovoz berish yakunlariga ta‘sir qilgan qoidabuzarlik tufayli ovoz berish yakunlari umuman yoki ayrim okruglar yoxud ayrim uchastkalar bo‘yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Ovoz berish yakunlarini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi qaror O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan qabul qilinadi va bu qaror ustidan referendum yakunlari e‘lon qilingan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat qilinishi mumkin.

Ayrim okruglar yoki ayrim uchastkalarda ovoz berish yakunlari haqiqiy emas deb topilgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining qaroriga binoan ana shu okruglar yoki uchastkalar bo‘yicha ovoz berish natijalari (agar bu natijalarsiz ham referendum umuman haqiqiy deb topilishi mumkin bo‘lsa) umumiy natijalardan chiqarib tashlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi majlisida ovoz berish yakunlari chiqariladi va bu haqda bayon tuziladi. Bayon rais, rais o‘rinbosari, komissiyaning kotibi, boshqa a‘zolari tomonidan imzolanadi.

Referendum yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qaror qabul qiladi.

Huquqbuzarlik obyekti bevosita jamoatchilik fikri so'rovlari natijalari, saylov yoki referendum natijalari taxminlari, shuningdek saylov yoki referendum bilan bog'liq boshqa tadqiqotlarni chop etish (e'lon qilish)dan iborat harakatlarda ifodalanadi.

Huquqbuzarlik subyekti moddaning sanksiyasida keltirilganidek faqat mansabdor shaxs hisoblanadi.

Subyektiv tomondan huquqbuzarlik qasddan sodir etiladi.

Huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 245-moddasiga ko'ra ma'muriy ishlar bo'yicha sudyalardan tomonidan ko'rib chiqiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING AYRIM QONUN HUJJATLARIGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH TO‘G‘RISIDA

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami,
2014-yil, 36-son, 452-modda)*

Qonunchilik palatasi tomonidan 2014-yil 23-avgustda qabul qilingan
Senat tomonidan 2014-yil 28-avgustda ma’qullangan

[KO‘CHIRMA]

9-modda. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 3, 6-modda ...) quyidagi qo‘shimchalar va o‘zgartish kiritilsin:

1) quyidagi mazmundagi **V¹ bob** bilan to‘ldirilsin:

«V¹ bob. Saylov va referendumni tashkil etish hamda o‘tkazish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik

51²-modda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning faoliyatiga aralashish

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning faoliyatiga aralashish, xuddi shuningdek ularning ishiga to‘siqlarni yuzaga keltirish, — mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

51³-modda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning qarorlarini ijro etmaslik

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov komissiyalarining, referendum o‘tkazuvchi komissiyalarning qarorlarini ijro etmaslik, xuddi shuningdek ularning murojaatlarini ko‘rib chiqishni g‘ayrihuquqiy ravishda rad etish, ularni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, —

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

51⁴-modda. Nomzodning, ishonchli vakilning, kuzatuvchining yoki siyosiy partiya vakolatli vakilining huquqlarini buzish

Nomzodning, ishonchli vakilning, kuzatuvchining yoki siyosiy partiya vakolatli vakilining huquqlarini buzish, —

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining besh baravaridan oʻn baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

51⁵-modda. Saylovoldi tashviqotini, referendumga qoʻyilgan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish shartlari va tartibini buzish

Saylovoldi tashviqotini, referendumga qoʻyilgan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish shartlari va tartibini nomzod, ishonchli vakil, siyosiy partiya vakili, mansabdor shaxs tomonidan buzish, —

eng kam ish haqining yetti baravaridan oʻn baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

51⁶-modda. Nomzodlar, siyosiy partiyalar toʻgʻrisida yolgʻon maʼlumotlarni tarqatish

Saylov natijalariga taʼsir koʻrsatish maqsadida nomzod, siyosiy partiya toʻgʻrisida ataylab yolgʻon maʼlumotlarni eʼlon qilish yoki boshqa usullar orqali tarqatish, —

fuqarolarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan oʻn baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

51⁷-modda. Saylovga yoki referendumga tayyorgarlik koʻrish va saylov yoki referendum oʻtkazish jarayonida axborot hamda tashviqot materiallarini qasddan yoʻq qilib yuborish yoki ularga qasddan shikast yetkazish

Binolarga, inshootlarga yoki boshqa joylarga joylashtirilgan axborot, tashviqot materiallarini saylovga yoki referendumga tayyorgarlik koʻrish va saylov yoki referendum oʻtkazish jarayonida qasddan yoʻq qilib yuborish yoki ularga qasddan shikast yetkazish, —

eng kam ish haqining uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

51⁸-modda. Saylovni yoki referendumni moliyalashtirish tartibini buzish

Saylovni yoki referendumni moliyalashtirish tartibini buzish, —

fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan oʻn baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa oʻn baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

51⁹-modda. Jamoatchilik fikri soʻrovlari natijalarini, saylov yoki referendum natijalari taxminlarini chop etish (eʼlon qilish) tartibini buzish

Jamoatchilik fikri soʻrovlari natijalarini, saylov yoki referendum natijalari taxminlarini, shuningdek saylov yoki referendum bilan bogʻliq boshqa tadqiqotlarni chop etish (eʼlon qilish) tartibini buzish, —

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o'n besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi»;

2) quyidagi mazmundagi 179⁵-modda bilan to'ldirilsin:

«179⁵-modda. Qasddan bankrotlikka olib kelish

Yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yoki yuridik shaxs mansabdor shaxsi, muassisi (ishtirokchisi) yoxud mol-mulkining mulkdori tomonidan shaxsiy manfaatlarini yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan qasddan bankrotlikka olib kelish, ya'ni to'lovga qobiliyatsizlikni qasddan yuzaga keltirish yoki oshirish, ushbu yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik shaxsning barqaror iqtisodiy nochorligiga (bankrotligiga) olib kelsa, kreditorlarga zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, —

mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining o'n besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi»;

3) 245-moddaning birinchi qismi «51¹» va «179⁴» raqamlaridan keyin tegishincha «51², 51³, 51⁴, 51⁵, 51⁶, 51⁷, 51⁸, 51⁹» va «179⁵» raqamlari bilan to'ldirilsin;

4) 305-moddaning ikkinchi qismidagi «170» raqami «51², 51³, 51⁴, 51⁵, 51⁶, 51⁷, 51⁸, 51⁹, 170» raqamlari bilan almashtirilsin.

30-modda. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Ushbu Qonun «Xalq so'zi» gazetasining 2014-yil 5-sentabrdagi 172 (6102)-sonida e'lon qilingan.

**O'zbekiston Respublikasining
Prezidenti**

I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2014-yil 4-sentabr,
O'RQ-373-son

XULOSA

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq barcha sohalarda bo‘lgani kabi sud-huquq tizimidagi islohotlarni rivojlantirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. Buning pirovard maqsadi ham fuqarolarga munosib turmush sharoiti yaratish, ularning huquq va erkinliklarini munosib himoya qilishlari uchun mavjud qonunlarni yanada takomillashtirishdir.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan sohani bosqichma-bosqich, izchillik asosida rivojlantirish va milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar dasturi amalga oshirib kelinmoqda. Bu islohotlarning mazmun-mohiyati muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2010-yilning 12-noyabrida taqdim etilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ikkinchi ustuvor yo‘nalish sifatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iborat ekanligi belgilab berildi.

Binobarin, o‘tgan yili Qonunchilik palatasi tomonidan 30 ta qonun qabul qilingan bo‘lsa, bu qonunlarning 9 tasi Konsepsiyaga muvofiq tayyorlangan. Shuningdek, 28 ta qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolandi va kuchga kirdi.

Qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlarning bu jarayondagi faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, qonunchilik tashabbusi tartibida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan – 6 ta, Vazirlar Mahkamasi tomonidan – 19 ta, Bosh prokuror tomonidan – 2 ta va boshqa subyektlar tomonidan – 3 ta qonun loyihasi parlament quyi palatasi muhokamasiga kiritilgan.

«Saylov erkinligining bundan buyon ham ta’minlanishi va saylovga oid qonun hujjatlarining rivojlantirilishi munosabati bilan «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi hamda «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qonun saylov erkinligining bundan buyon ham ta’minlanishiga va saylovga oid qonun hujjatlarining rivojlantirilishiga xizmat qiladi.

Bu kabi kiritilgan qo‘shimchalar saylovlar – mamlakatda amal qiluvchi huquqiy normalarning demokratililigini belgilovchi muhim masala ekanligiga, saylovlar huquqiy demokratik davlatning ajralmas qismi, xalqning o‘z xohish-irodasini ifoda etishining asosiy shakli, fuqarolarning

davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etishi-ning asosiy shakli ekanligiga tayanadi. Mazkur qonunning qabul qilinishi va amalga oshirilishi saylov erkinligi prinsipini yanada to‘liqroq amalga oshirishga, mamlakatimizning saylov tizimini yanada demokratlashtirishga, saylov tashviqotini olib borish jarayonida deputatlarga, siyosiy partiyalarga teng sharoitlar ta‘minlanishi samaradorligini oshirishga, shuningdek deputatlikka saylovning oshkoraligi va ochiq-oydinligi prinsiplarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta‘kidlash joizki, mamlakatimiz demokratik huquqiy davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini yuksaltirish yo‘lida qonunchilik tizimidagi islohotlar, yangilanishlar tobora izchillik va keng qamrov kasb etayotgan bugungi jarayonlar jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, aholining huquqiy ongi va savodxonligini yanada oshirish, qabul qilinayotgan qonunlarni aholiga sodda va tushunarli tarzda yetkazishni taqozo etmoqda.

Oliy yuridik ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar, mustaqil ilmiy izlanuvchilar, bakalavriat va magistratura yo‘nalishi talabalari va tinglovchilari, qolaversa saylov jarayoni ishtirokchilariga mo‘ljallangan mazkur qo‘llanma «Qonunchilik targ‘iboti kutubxonasi» ruknida ilk urinish bo‘lib, qonun normalari mazmunini anglashda, amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash vazifasini qo‘yadi.

Saylov va referendumni tashkil etish va o‘tkazishga oid qoidabuzarliklar uchun javobgarlik normalarining to‘g‘ri va aniq qo‘llanilishini bayon etuvchi tushuntirishlar, izohlarda muallif qat’iy fikrlardan yiroq. Shu bilan birga, muallif ilmiy-amaliy sharhning mazmuni, mantiqiy tuzilishi haqidagi tanqid, fikr va mulohazalar, takliflarni samimiyat bilan qabul qiladi va kelgusidagi nashrlarda inobatga oladi.

ISMOILOV Nasriddin To‘ychiyevich,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MA‘MURIY JAVOBGARLIK TO‘G‘RISIDAGI
KODEKSINING 51² – 51⁹-MODDALARIGA**

S H A R H L A R

Ilmiy-amaliy qo‘llanma

Muharrir **B. Q. Ergashev**
Texnik muharrir **D. R. Djalilov**

Bosishga 09.01.2015-y. ruxsat etildi. Nashriyot hisob tabag‘i 2,0.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma.....

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi,68.